

“VATAN” LEKSIK-SEMANTIK KATEGORIYASINING MIKROSISTEMALARI

Azizbek Xolmirzayev

Qarshi davlat universiteti

E-mail: azizbekxolmirzayev87@gmail.com

Annotasiya

Ushbu maqolada “Vatan” leksik kategoriyasiga oid leksemalarning yadro, markaz va periferiyalarini aniqlash va ularning o‘zaro semantik aloqadorligi, ushbu kategoriyaning leksik bazasi qanday shakllanib hamda boyib borishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: leksik kategoriya, leksema, yadro sema, markaz sema, chekka sema (periferiya), umumiy sema va xususiy sema.

MICROSYSTEMS OF THE LEXICAL-SEMANTIC CATEGORY “HOMELAND”

Annotation

This article describes the definition of the core, center and periphery of lexemes of the lexical category “Homeland” and their semantic relationship as well as the formation and enrichment of this category.

Key words: Lexical category, lexeme, core seme, central seme, peripheral seme (periphery), general seme and special seme

МИКРОСИСТЕМЫ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОЙ КАТЕГОРИИ “РОДИНА”

Аннотация

В данной статье описано определение ядра, центра и периферии лексем лексической категории “Родина” и их семантическая связь, а также формирование и обогащение этой категории.

Ключевые слова: Лексическая категория, лексема, основная сема, центральная сема, периферическая сема (периферия), общая сема и специальная сема

Kirish

Leksik kategoriyani o'rganish kategoriya tarkibidagi leksemalarning ma'noviy joylashuvini, munosabatini va ularning xususiyatlarini ochib berishga qaratilishi kerak. "Vatan" leksemasi tarkibida "kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri yoki qishlog'", "yurt, diyor, kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan mamlaka", "ona yurt, turarjoy, boshpana, maskan, uy, o'simlik va shu kabilarning asli kelib chiqqan yeri" ma'nolarini bildiradi. O'zbek tilidagi turli xil leksik kategoriyalar ularning tarkibidagi har bir so'zning qismlarini yoritib berilishi leksik kategoriya mazmun mohiyatini yanada kengroq yorqinlashtiradi. Leksik ketgoriyaning asosiy xususiyatlaridan biri bir-biri bilan semantik bog'langan so'zlarning uyushuvchanlik tabiatidir. Biz ta'kidlab o'tayotgan leksik kategoriyalar so'zlarning tarkibini, uning yo'nalishidagi ma'nodosh so'zlarni ketma-ketligini ko'rsatib beradi.

Tilshunoslikda leksik mazmunli so'zlarning strukturasi har xil ta'riflanmoqda: ayrim manbalarda leksik mazmunli so'zlarning ifoda tomoni (ifodalovchisi) leksema deb, mazmun tomoni (ifodalanuvchisi) esa semema deb atalmoqda. Demak, leksema va semema leksik birlikning (so'zning) o'zaro aloqada bo'lgan ikki tomoni ekanligi aytiladi.[1:93]. Boshqa manbalarda esa leksema so'zning ifoda tomonigina emas, balki uning ifoda va mazmun tomonlari birligidan iborat yaxlit butunlik ekanligi ta'kidlanadi. Bu butunlik nominativ funksiyadagi so'z yoki so'z birikmasi shaklida bo'ladi. U onomasiologiyada tilning lug'at tarkibidagi bir component (vokabular) sifatida, semasiologiyada esa ma'lum ma'nolar tarkibidan iborat birlik (semantema) sifatida o'rganiladi. Turli xildagi leksik ma'noning o'zagi va uning chegarasini aniqlashda ular tarkibidagi semema va sema muhim yechim hisoblanadi. O'zbek tilida so'zlar tuzilishiga ko'ra sodda va yasama so'zlarga bo'linadi. O'z navbatida sodda so'zlar sodda tub va sodda yasama so'zlarga bo'linadi. Ana shu yasama so'zlarning asosi va yasovchi qo'shimchasi yangi ma'lumot beruvchi ma'noli qismlarga bo'linadi. So'zlarning ma'noviy tarkibi ham leksik-semantik xususiyatiga ko'ra xuddi shunday bo'linishiga ega. So'zning har bir ma'noli qismi

yangi ma'noviy munosabatni anglatishiga ko'ra yadro, markaz va periferiyaga ma'nolarga ega bo'adi.

Izohlanayotgan leksik kategoriya xususiyatlari odatda yadro, markaz va periferiyaga ega bo'ladi. "Vatan" leksik kategoriyasining "muqaddas" yoki "yurt" kabi bir qancha leksik tarkibidagi so'zlar bilan bevosita aloqador bo'ladi. Biz aytishimiz mumkinki yuqoridagi "Vatan" leksik kategoriyasining "yurt" so'zi uning ma'noviy guruhining yadrosidan ya'ni mazmunan uning markazidan joy olgan. Leksema tarkibidagi so'zlashuv tiliga xos bo'lgan kesatiq ma'no (teskari ma'no)dagi "gado" leksik kategoriya atrofida asosiy bo'lmagan ya'ni chegara ma'no deb nomlanadi. Shuning uchun ham barcha ma'nolar, uyushuvchi, asosiy va birlamchi ma'no asosida shakllantirish kerak. Yuqoridagi biz aytib o'tgan yadro, markaz va periferiya bu leksik kategoriyaning tashkil qiladi.[3:45-46]

Shu bilan birga polesemantik va omonimlik xarakterdagi leksemalar tarkibiga ko'ra semantik, sintaktik, grammatik nuqtayi nazaridan bir biri bilan aloqada bo'ladi yoki butunlay mazmun tomondan uzilgan bo'ladi. Bunga "o'zgarmoq" so'zi misolida ko'rib chiqamiz .

- 1.Rang-tusi, boshqa rangga kirmoq ma'nosida
- 2.Asli belgi-susiyati, tarkibi, navi o'zgargan
- 3.Sof(odatiy) holati, yaxshi yoki yomon tomonga o'zgargan
- 4.Iste'molga yaroqsiz bo'lmoq, tami buzilgan
- 5.Hol-ahvoli yaxshilanmoq yoki yomoshlashmoq, o'zgarmoq
- 6.Xulq-atvori, odob-axloqi jihatidan, o'zgarmoq
- 7.Odamning fikri yoki niyati, o'zgarmoq
- 8.Insonlar orasidagi munosabat, yaxshi yoki aksincha tomonga o'zgarmoq .

Polisemantik leksemalarning leksik ma'nolari o'zlarining leksik konteksti bilan birga, shu leksemaning u yoki bu morfologik shaklga kirish imkoniyatlari bilan ham bir-biridan farq qiladi, Masalan, "tarix tilga kirdi" deyish mumkin, ammo "dehqonchilik tilga kirdi" deb bo'lmaydi. Shuningdek, "dehqonchilikning tilini biladi" deyish mumkin bo'lgani holda, "tarixning tilini biladi" deyish hollari uchramaydi. Bular shuni ko'rsatadiki, har bir leksik ma'noning o'z leksik konteksti va o'z grammatik tabiati bor.[4:215]

Leksik ma'nolarda semantik bog'lanish. Leksemalar gapda teng va tobe munosabatlar asosida bog'lanib keladi. Bunday bog'lanishda ular o'rtasidagi semantik munosabatlar ham hisobga olinadi. Masalan, "u choy ichdi" deyish

mumkin, ammo “u choy yedi” deb bo‘lmaydi, chunki yemoq fe‘lining semantik tarkibida “suyuqlik” semasi, “choy” leksemasida esa “quyuqlik” semasi yo‘q: choy yeyilmaydi, non ichilmaydi. Demak, o‘zaro bog‘lanayotgan leksemalarning semantik tarkibida bir umumiy semaning bo‘lishi shart. Bunday umumiy sema tilshunoslikda sintagmema deb yuritiladi. Choy va ichmoq so‘zlarining har ikkalasida mavjud bo‘lgan “suyuqlik” semasi “choy ichdi” bog‘lanishida sintagmema vazifasini bajargan bu ikki so‘zning semantik bog‘lanishini ta‘minlagan. Leksemalarning birikma yoki gap tarkibida o‘zaro aloqaga kirisha olish (bog‘lana olish) xususiyatlari tilshunoslikda valentlik deb yuritiladi, valentlikka oid g‘oyalar, qarashlar umumlashmasi esa valentlik nazariyasini shakllantiradi. [1:54-55]

Har qanday so‘z ham bir-birining semantik kategoriyasi tarkibiga bevosita aloqador bo‘lmaydi. Negaki misol uchun, „tarbiya“ leksik semantik kategoriyasi doirasida, shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma‘naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yigindisi”ga tarbiya deyiladi. Ko‘rinib turibdiki bu semalarning hech biri „vatan“ leksik kategoriyasi tarkibida yo‘q.

Shuni ham takidlab o‘tishimiz kerakki leksik kategoriyadagi semalar (so‘zlarning ma‘no jihatining eng kichik birligi) ham ikkiga bo‘linadi.

1. Arxisema-leksema sememalarini (leksemaning ichki tomoni uning mazmuni; ma'nosi nmani ifodalab kelishi) umumlashtiruvchi kichik kategoriya hisoblanadi.
2. Differensial-semani kuchaytirish bilan yadroni aktivlashtirish jarayoni. Sinonimlik qatoridagi leksemalarning differensial xususiyatlari kengaygan sari yadro semasining vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning hammasida sema bir sinonimlik qatoriga birlashadi.

„Vatan“ leksik kategoriyalarining yadro, markaz va periferik xususiyatlarini, mohiyatini yoritib berishda ularning tarkibidagi semalar asosiy ro‘l o‘ynaydi. Biz aytib o‘tgan leksemalarning mazmuniy chegrasi yadro va markazning munosabati periferiyasining xususiyatlariga qarama-qarshi qo‘yilgan holda yoritiladi. Dastlab leksik kategoriya tarkibidagi yadroni aniqlab olish muhim hisoblanadi. „Vatan“ leksik kategoriyasining yadrosida “yurt”, “diyor”, “o‘lka”, “ona yur”, “turar joy”, “boshpana”, “maskan”, “uy” kabi so‘zlar bilan ifodalanadi. [2:411]. Shu so‘zlarni bir biriga zid bo‘lgan ya‘ni qarama-qarshi holati periferiyani hosil qiladi.

Xulosa:

“Vatan” leksik kategoriyasi tarkibidagi leksemalar ma’noviy munosabatini va ularning semantik xususiyatini yadro, markaz, periferiya ma’nolarini aniqlab olish va leksik kategoriyaga bevosita kiradigan leksemalarning ichki tuzilishini tahlil qilish yo’li bilan aniqlash mumkin. Bizga aniq semantik ma’nolar ostida birlashgan leksik kategoriyalarning leksemalari birlashib “Vatan” kategoriyasining leksik bazasini shakllantiradi. Aynan mana shu tahlil usuli boshqa leksik kategoriyalarning xususiyatini aniqlashda ham samarali natija ko’rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ne’matov H. va Rasulov R. O‘zbek tili system leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – Leksemalarning leksik birlik sifatidagi tavsifi - 93 b.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zME, 2008. – 411 b.
3. БЫТЕВА Т.И. ОЧЕРКИ ПО РУССКОЙ ПЕРИФРАСТИКЕ. – М.: Эллис, 2008. “Трехчленность семасиологической структуры” 45-46 с.
4. НН Щербакова · 2006 Л.А. Семантика русского языка:М.: Высшая школа, 1982. “Семантическое словообразование как лингвистическая проблема”-215 с
5. arxiv.uz
6. fayllar.org
7. ru.wiktionary.org